



BEHBUDIYNING “MUHTARAM YOSHLARG‘A MUROJAAT” MAQOLASIDAGI IJTIMOY MUAMMOLAR TAHLILI

G‘aniyeva Yulduz Qurbonali qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi
1-bosqich magistranti +998 999807108
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20727841>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Behbudiyning “Muhtaram Yoshlarg‘a Murojaat” maqolasi tahlil qilinadi. Behbudiy ushbu maqolada mavjud dolzarb muammolar haqida so‘z yuritadi. Jumladan, oddiy insonlar uchun maktablar ochish, o‘qituvchilarni, bilimli kishilarni ko‘paytirish maqolaning bosh mavzusi hisoblanadi. Va bu muammolar bugungi kunda ham qisman dolzarb bo‘lib qilmoqda.

Kalit so‘zlar: Behbudiy, Turkiston, yoshlar, ma‘rifat, maktab, taassub, millat.

Jadidlar faoliyati bilan tanishar ekanmiz, ularning ijodlarida xalqni ma'rifatli qilish, mustamlaka zulmidan jabr- u sitam tortayotgan Turkistonni o‘z tarixlari bilan tanishtirish, o‘z ijodlari orqali aholini ozodlik va ma'rifat yo'lida kurashish, dunyodagi rivojlangan davlatlar qatorida bo'lish uchun bilan olishga o'qib o'rganishga chaqirishgan. Bunday ziyoli jadid namoyondalaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiydir. Behbudiy ham har bir jadid ulamosi kabi kurashdi. Mazlum turk xalqini ilmdan boxabar etish, mutaasiblikdan xalos qilish va o‘z ahvollari to‘g‘risida ma‘lum qilish uchun turli usullardan foydalandi, teatrlar uchun pyesalar va gazetalar uchun masalalar yozish shular jumlasidandir. Ushbu maqolalarda Behbudiy insonlarning fikrlash va mafkuraviy jihatdan tubsiz chuqurlikka botib borayotganliklarini ta‘rifladi va go‘yoki bir ko‘zguda ularning aksini ko‘rsatdi.

Metodlar

Ushbu maqolada buyuk jadid namoyondalaridan, Turkiston jadidchiligining otasi bo‘lmish Mahmudxo‘ja Behbudiy maqolalariga, gazeta va jurnallarda chop etilgan murojaatlari asosida fikr-mulohazalar ilgari suriladi. Shu jihatdan unda tahliliylik, germeneytik, tarixiy, biografik, diskursiv tahlil kabi metodlardan keng foydalanilgan.

Natijalar va Muhokama

Buyuk jadid namoyondasi Mahmudxo‘ja Behbudiyning 1914-yil "Oyna" jurnalining 29-sonida e'lon qilingan “Muhtaram Yoshlarg‘a Murojaat” nomli maqolasida ham ziyoli yoshlar mavjud muammolarni hal qilishga chaqiriladi. Unga yoshlar mamlakatda katta kuch ekanliklari butun dunyoda madaniyatga ularning vositasida erishish va ko‘pgina islohotlarni ularning tashabbuslari orqali



qo'lg'a kiritish mumkinligini aytadi va Turkistonda mavjud bo'lgan milliy matbuot va maktablar ham aynan ularning g'ayrat va shijoatlari oqibatida yuzaga kelganini alohida takidlaydi. Maqoladan anglashiladiki, muallif tomonidan "Yoshlar" deya qilingan murojaatda faqatgina yosh qatlam emas balki, moddiy va ma'naviy jihatdan millatga foyda bergan boshqa insonlar ham nazarda tutiladi. Bu ta'riflar esa maqolada quyidagicha ta'riflanadi "Mollari yoki so'zlari ila millat foydasig'a yordamlari tekkan ba'zi ulamo-u ag'niyomiz ham yoshlar qatoridadurlar".¹

Ushbu maqolasida Behbudiy maktablarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni haqida shunday degan edi: "Muhtaram birodarlar! Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondurki, makotub-taraqqiyotining boshlang'ichi, madaniyat va saodatning darvozasi. Har millat eng avval makotibi ibtidoiysini zamonga isloh etib, ko'payturmaguncha taraqqiy yo'liga kirib madaniyatdan foydalanmas". Bu so'zlardan anglashimiz mumkinki, har bir davlatda taraqqiyotning eshigini maktablar ochadi, zamonaviy taraqqiy bosqichini aynan maktabda o'qitiladigan zamon ruhiga mos bo'lgan fanlar olib kiradi. Aynan o'tgan asrlarga nazar soladigan bo'lsak maktablar ham madrasalar ham faoliyat yuritgan bo'lsada, ular faqatgina diniy va ijtimoiy fanlar bilan chegaralangan. Tabiiy ilmlar esa umuman o'rgatilmadi. Bu jihatdan "Turkiston o'lkasidagi nodonlik, johillik va zabunlikning asosiy sababini Behbudiy fikriga ko'ra, ilmsizlikdan izlash kerak"² Shu boisdan Nafaqat Turkiston, balki sharqning ko'pgina mamlakatlari sivilizatsiyadan ortda qola boshladi. Mavjud bilimlar ham chuqurlashtirib o'tilmadi. Diniy mutassiblik kuchaygan ushbu davrlarda zamon ruhiga mos har qanday yangilik dinga qarshi qo'yildi. Ayni shu ma'noda xalq holidan tashvishga tushgan Behbudiy "Madaniyati hoziradan mahrum qolib, sanoe' va maorif salohi ila qurollanmagan millat esa, dunyoda rohat va saodat yuzini ko'rolmas" fikrlaridan anglash mumkinki bunday millat bora-bora dushman oyoqlari ostida xor bo'lib, o'z mustaqilligini qo'ldan boy beradi".³ Shuningdek, bunday ahvol ularning diniy va iqtisodiy ishlarda o'zgalarga asirga aylanadi va hatto, milliyat va diyonatdan ham mahrum bo'ladi. Shunisi ayonki, ayni davrda Turkiston ham shu ta'riflarga mos bo'lgan mintaqaga aylanayotgan edi. Millatni qutqarish uchun hozirlangan bu kabi chorlovlar uning orasidan xalq ahvoliga befarq bo'lmagan yoshlarni, ziyolilarni uyg'ota oldi. Bundan tashqari maqolaga ko'pgina millatlarning bolalariga maktablar ochib, ularga diniy va milliy ruhda ta'lim berayotganliklari haqida so'z yuritiladi. Va shuning uchun ham bu millatlar millat tushunchasini birinchi o'ringa qo'yib, har bir ishlarini diyonat bilan bajaradi. Shu sababdan ular taraqqiy etdi va hatto

¹ Behbudiy "Tanlangan asarlar" -Toshkent, 1999. - B. 176.

² "Mahmudxoja Behbudiy buyuk ma'rifatparvar" - Toshkent: "Ma'rifat". 2024. - B. 5.

³ Behbudiy "Tanlangan asarlar" -Toshkent, 1999. - B. 176.



bunday hislati eng kuchli bo'lganlar dunyoni boshqarishdi. Agar insonda millat tushunchasi birinchi o'rinda tursa u o'sha millat uchun hatto jonidan kechishga tayyor bo'ladi. Turkistonda esa faqatgina taassub mavjud bo'lib, millat diyonati yolg'iz taassub soyasida ishlab turilgan. Chunki, bu paytda Turkistonda millat tushunchasi mavjud emas edi, millat sifatida musulmon ekanliklarini bilishgan. Ammo xonliklar davrida va undan keyingi taxlikali zamonda taassub xalqni yagona maqsad yo'lida jipslashtirish uchun yetmasdi. Ko'r-ko'rona taassubga ergashish orqasidan turli muammolar yuzaga kelishi mumkin. Bundan qutilishning birgina chorasini ilm va maorif deb hisoblagan Behbudiy. Behbudiy 1911-yilda "Padarkush" dramasini yozdi. "Padarkush" dramasi dastlab Samarqandda 1914-yil 15-yanvarida sahnaga qo'yilgan. Muallif "milliy fojia" deb atagan dramada nodonlik, ilmsizlik va johillik tanqid qilingan. Ushbu dramada Behbudiy Turkiston va millatimiz haqida shunday deydi: "Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bevatan va bandi qilg'on tarbiyasizlik va jaholatdur"⁴ Bundan tashqari ushbu dramada dunyoviy ilmlarni egallanishining ahamiyati, yoshlarning millat ravnaqidagi o'rniga alohida to'xtalib o'tadi. "Olimi zamoniya bo'lmoq uchun bolalarni, avvalo, musulmoniy xat, savodini chiqarub, zaruriyati diniya va o'z millatimiz tilini biladiring'ondan so'ngra, hukumatimizning nizomli maktablaringa bermoqlik kerakdur, ya'ni gimnaziya va shahar maktablarini o'qub tamom qilg'onlaridan so'ng Peterburg, Moskov dorilfununlariga yuborib dokturlik, zakunchilik, injenerlik, sudyalik, ilmi san'at, ilmi iqtisod, ilmi hikmat, muallimlik, va boshqa ilmlarni o'qutmoq lozimdir."⁵

"Taxsili maorifni ibtidoiy qismi muntazam maktablar endi biz Turkiston musulmonlarig'a ibtidoiy maktablarni ko'paytirmoq lozimdir. Tabiiy, maktab muallimsiz ko'paymas. Hozirda esa Turkistonda muallim oz bo'lib, muallimlarga ehtiyojimiz shadiddir. Chunki, bu kunlarda yangi maktab havaskorona kundan kun ziyodalanmoqtadirki, muallimlar mavjud bo'lgan taqdirda har yil Turkistonda yuzlarcha maktab ochmoq mumkindir"⁶. Shu bilan birga, u Turkistondagi yoshlar ahvolini boshqa rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar bilan solishtirar ekan "boshqa millatning bolalari maktabda, lekin bizniki hammollikda va gadoylikda" degan fikrlarni bildiradi."⁷

Mamlakatdagi har bir kishiga ilm uchqunlarining yetib borishi, amalda ularni harakatga chorlash uchun maktab eng katta kuch ekanligini tushunib yetgan jadidlar o'zlari darslik yaratdilar, maktab ochmoq uchun homiylarni safarbar etib


⁴ MAHMUDXO'JA BEHBUDIY ILMIIY FAOLIYATIDA INSON KAPITALINI ...

<https://cyberleninka.ru/article/n/mahmudxo-ja-behbudiy-ilmiy-faoliyatida-inson-kapitalini-yuksaltirish-masalalari>

⁵ Behbudiy M. "Padarkush tanlangan asarlar". - Toshkent: Ma'naviyat, 1997. - B.

⁶ Behbudiy "Tanlangan asarlar". - Toshkent, 1999. - B.177.

⁷ Behbudiy M. "Samarqand gazetasi", 1913. № 1



yoshlarni qisqa muddatda savodli qilish choralarini koʻrdilar. Oʻqib savodli boʻlganlari hatto dunyoqarashini kengaytirish uchun, zamonaviy ilmlarni oʻrganish uchun xorijga yuboriladi. Bundan koʻzlangan maqsad esa, qaytib kelib ular ham maktablarda muallim boʻlishi millat ichida siyosiy ahvolga toʻgʻri baho bera oladigan ziyoli qatlamning sonini koʻpaytirish edi. Aholining aslzoda, maktab ochish imkoniyatiga ega boʻlganlari orasida ham koʻpchiligi maktab ochdilar. Bunday yoshlarning soni oshishi tabiiyki, millat oʻzligini anglashida muhimdir. Behbudiy ham ularning gʻoyatda katta kuch ekanligini inobatga olib, ularga murojaat etadi. Boisi, har bir mamlakatda asosan yoshlar islohotlarga moyil boʻlib, jamiyatni ularning kuchi bilan oʻzgartirish osonroqdir.

Muallim yetishtirmak uchun Turkiston “yoshlari” shijoat koʻrsatsalar buning yoʻli oson boʻlar edi. Yangi usulda taʼlim olgan kishi kelgusi avlodga ham shu yoʻsinda taʼlim bera oladi. Maqolada Behbudiy Munavvar qorining Toshkentdagi maktabini ham tilga oladi. Oʻzi esa Samarqandda tugʻilgan va faoliyati ham oʻsha yer bilan bogʻliq. U muallim yetishmayotganligini jiddiy muammolardan biri sifatida taʼriflaydi va butun kuchini uni yechmoqqa sarfladi. Toshkent va Samarqand oʻrtasidagi masofaga, sarf-xarajatlarga qaramasdan muallimlikka qiziquvchilarni Toshkentga joʻnatish lozim ekanligini aytadi. Shuni aytish joizki, oʻzining va oʻzi kabi voshqa jadidlarning maqola va chaqiriqlarini keng ommaga yetib borishi uchun ancha say-harakatlar qiladi, bu yoʻlda bir qancha qiyinchiliklarbi bosib oʻtadi. Bu haqida Sadridin Ayniy ham 1913-yilda aprel oyida u "Samarqand" gazetasining bir necha raqamini chiqarishga muvoffaq boʻlganligini eslatib oʻtadi.

Xulosa

Xulosa sifatida ayta olamizki, oʻtgan asrlarda bunday muammolarni koʻpchilik payqamadi, faqat moddiy hayotlarini izga solish-u, oʻz gʻamini yeyishdan boshqasiga yarashmadi, muammoni koʻra bila turib befarq boʻlganlar ham boʻldi, faqatgina millat uchun, kelajak uchun haqiqatda yonib-kuyganlar qoʻrqmasdan haqiqatni soʻzlashdi. Millatni uygʻotish uchun ne-ne mashaqqatlar chekishdi. Behbudiyning yuqorida tahlil qilingan “Muhtaram yoshlarga murojaat” nomli maqolasida oʻsha davrda juda dolzarb boʻlgan maktab ochish masalasi koʻtarilgan. Va unda yoshlar harakatga undalgan. Agar vaqtida savodsizlik tugatilmasa, vaziyat bundan ham ogʻir boʻlishini oldindan koʻra olgan Behbudiy xalqni maorifga, marifatga chorladi. Shuningdek, u maqolasi muammosini tahlil qildi va uning yechimlarini, maktablar ochilishining insonlarga taʼsirini tushuntirishga harakat qildi. Jadidlarning xususan Behbudiyning olgʻa surgan gʻoyasi nafaqat oʻsha davr uchun balki, bugungi kun



uchun ham g'oyatda ahamiyatli. Garchi bugungi kunda ba'zi hududlarda maktablar soni yetarli bo'lsa ham ilm olishga bo'lgan talab u qadar yuqori emasligini ko'rishimiz mumkin. Va bundan anglashimiz mumkinki, ilm-ma'rifat har qaysi zamonda, har qanday vaziyatda insonni zulmatdan nurga yetaklovchi kuchdir.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

- 1.Mahmudxo'ja Behbudiy "Tanlangan Asarlar". - Toshkent, 1999.
- 2.MAHMUDXO'JA BEHBUDIY ILMIIY FAOLIYATIDA INSON KAPITALINI Yuksaltirish <https://cyberleninka.ru/article/n/mahmudxo-ja-behbudiy-ilmiy-faoliyatida-inson-kapitalini-yuksaltirish-masalalari>
- 3.Behbudiy M. "Padarkush tanlangan asarlar". - Toshkent: Ma'naviyat, 1997.
4. Behbudiy M. "Samarqand gazetasi", 1913. № 1
- 5."Mahmudxo'ja Behbudiy buyuk ma'rifatparvar" - Toshkent: "Ma'rifat". 2024.
- 6."MAHMUDXO'JA BEHBUDIYILMIY-ADABIY MEROSINI O'RGANISHNING DOLZARB MASALALARI" MAVZUSIDAGI DAVRA SUHBATI MATERIALLARI. - Toshkent: 2025. - 76 b.

